

To'liq ishlayotgan xodimning **ish haqi** MPOT (mehnatga haq to'lashning eng kichik hajmi) da ko'rsatilgan miqdordan kam bo'lishi mumkin emas. Bu Sankt-Peterburgda 19 650 rubl.

Ish beruvchi mehnatni himoya qilish sohasidagi qonunchilikka rioya etishi zarur – agar **Sizning ishingisdagi mehnat sharoiti** hayotingiz va sog'ligingiz uchun xavfli bo'lsa, zudlik bilan ishni to'xtatib va Следственный комитет ga murojaat eting.

Ish kuni davomiyligi 8 soatdan, ish haftasi – 40 soatdan oshmasligi zarur. Ortiqcha ish uchun qo'shimcha to'lov belgilanadi (TK РФ ning 152, 153 va 154 moddalariga muvofiq).

Agar xodim o'z mehnat majburiyatlarini bajarmasa, ish beruvchi yozma ogohlantirishi, hayfsan berishi yo belgilangan tartibda (RF MK ining 192 m.) ishdan bo'shatishi mumkin. **Mehnat majburiyatlarini bajarmaslik uchun jarimaga tortish noqonuniydir!**

Adar Sizga ish haqi berishni kechiktirishsa, Sizga ish beruvchiga ish haqi to'loviga oid e'tiroz bilan murojaat etishni, shuningdek ishga oid hujjatlar nusxasini, jumladan, hisob varaqalarini berishni so'rab ariza yozishni (TK РФ 62-moddasi tartibida) tavsiya etamiz. Afar Siz 3 ish kuni davomida hujjatlar nusxasini olmasangiz, ish beruvchi ustidan Государственную инспекцию труда ga ariza yozing, prokuratura yoki sudga murojaat eting.

CHET ELLIK STUDENTLARING ISHLASI

Kunduzi o'qiydigan chet ellik studentlar o'qishdan bo'sh paytlarida patentsis va ishlash uchun ruxsat olmasdan ishlay olishlari mumkin. Ularga mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma tuzush uchun oliy o'quv yurti yo kollejdan ularning mazkur mintaqada o'qishlarini tasdiqlovchi ma'lumotnoma olib kelishlari talab etiladi.

MEHNAT HUQUQLARINI HIMOYA QILISH UCHUN QAERGA MUROJAAT ETILADI

Государственная инспекция труда в Санкт-Петербурге:
8 (812) 408-90-15, git78.rostrud.ru

Прокуратура Санкт-Петербурга:
8 (812) 315-48-53, epp.genproc.gov.ru

Главное Следственное Управление Следственного комитета России по городу Санкт-Петербургу (mehnatga majbur etish va ish haqi to'lanmasligi hollarida):

8 (812) 571-00-40, 8 (812) 570-66-71, spb.sledcom.ru

Bevul huquqiy yordam

Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге:

chet ellik fuqarolar (mehnat muhojirlari) «ishonch telefoni» –
8 (812) 576-28-67

«ПСП-фонд» хаурига jamg'armasi:
8 (953) 141-31-09, 8 (812) 337-57-85, vk.com/pspfond

«Ориентир» jamg'armasi:
https://fondorientir.ru ; vk.com/fond_orientir; www.instagram.com/fond_orientir/; www.facebook.com/fondorientir
e-mail: info@fondorientir.ru; ishonch telefoni: +7 (812) 385-69-89

Foydali maslahatlar:

Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге ning muhojirlar uchun internet-resursi:
https://www.gov.spb.ru/gov/otrasl/kmormp/internet-resurs-dlya-migrantov/

Федеральной службы по труду и занятости ning electron xizmatlari:
www.Onlayninspeksiya.rf
www.rostrud.ru

«Muhojirlik va muhojirlar. Mintaqalararo axborot portali» - moslashuv va o'z huquqlarini himoya qilishga oid maslahatlar, foydali muloqotlar:
www.migrussia.ru

Axborot resurslari

СПб ГКУ «СПб Дом национальностей»



http://spbdn.ru/



https://vk.com/domnac_spb



https://www.instagram.com/spb_domnac/

Буклет «Миграционное законодательство Российской Федерации и правила трудоустройства. Советы трудовым мигрантам» (на узбекском языке)

*Разработка текста: БФ «ПСП-фонд»
Авторы-составители: Хлызова Д.В., Якимов А.Н.
Редактор: Панич Б.Л.*

Тираж 2000 экз.

Изготовлено по заказу СПб ГКУ «СПб Дом национальностей» при поддержке Комитета по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге.



Комитет по межнациональным отношениям и реализации миграционной политики в Санкт-Петербурге



Sankt-Peterburgga xush kelibsiz!

Rossiya Federatsiyasi Muhojirlik qonunchiligi va ishga joylashish qoidalari



Mehnat muhojirlariga maslahatlar

Sankt-Peterburg
2021

MUHOJIRLIK QAYDIDAN O‘TISH

Chet ellik fuqaro kelgan muddatidan so‘ng kelgan erida **7 ish** kuni davomida **muhojirlik qaydidan o‘tishi zarur**; EOIH a‘zo-davlatlari (Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirgiziston) – **30 kun** davomida; Tojikiston fuqarolari – **15 kun** davomida.

Muhojirlik qaydidan Siz yashaydigan manzil bo‘yicha o‘tish zarur. Muhojirlik qaydiga Sizga turar-joy beradigan **qabul qiluvchi tomon** qo‘yishi mumkin.

Ular quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- ▶ Sankt-Peterburgda doimiy ro‘yxatdan o‘tgan RF fuqarosi;
- ▶ Sankt-Peterburgda doimiy yashaydigan chet ellik fuqaro;
- ▶ turar-joy egasi bo‘lgan chet ellik fuqaro;
- ▶ huquqiy shaxs: ish beruvchi- tashkilot, mehmonxona.

Muhojirlik qaydidan o‘tish uchun murojaat etish mumkin:

- ▶ Управления по вопросам миграции ГУ МВД РФ по Санкт-Петербургу и Ленинградской области ning hududiy bo‘linmasiga;
- ▶ davlat xizmatlari ko‘rsatish ko‘p vazifali markaziga (МФЦ). Sizga quyidagi hujjatlar va ularning nuxchalari sarur bo‘ladi:
 - ▶ pasport;
 - ▶ muhojirlik kartasi;
 - ▶ ixtiyoriy tibbiy sug‘urta polisi,
 - ▶ turar-joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat nusxasi (xususiy mulkka oid shahodatnoma, turar-joy ijarasi shartnomasi va hokazo)

Muhojirlik qaydidan o‘tish uchun zarur:

1. Kelish haqidagi varaqa-bildiruvni har ikki tomonida to‘ldirish.

U bepul beriladi:

- ▶ Управления по вопросам миграции ГУ МВД РФ по СПб и ЛО ning bo‘linmalarida;
- ▶ МФЦ da;
- ▶ «Почты России» bo‘linmalarida.

To‘ldirilgandan keyin varaqaaning bir qismi УВМ ГУ МВД РФ ga beriladi, ikkinchi qismi chet ellik fuqaroda qoladi. Har ikki qismida **albatta** kelgan joyi manzili, qabul qiluvchi tomonning va chet ellik fuqaroning shaxsiy ma‘lumotlari ko‘rsatiladi. Qabul qiluvchi tomon-fuqaro varaqaga o‘z imzosini chekadi.

2. Bildiruvni chet ellik fuqaro va RF fuqarosi (qabul qiluvchi tomon)ning pasporti nusxasi va muhojirlik kartasi nusxasi bilan «Почту России» orqali УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО ga

jo‘natish. Bildiruvni shaxsan МФЦ ga yoki УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО ning bo‘linmasiga topshirish mumkin. BEPUL

3. УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО, МФЦ yoki «Почты России» bo‘linmalari xodimlaridan bildiruvning qabul qildanlik haqidagi belgi qo‘yilgan uzilgan varaqasini olmoq. .

Vizasis tartibdagi mamkallatlar fuqarolarini dastlabki qaydga qo‘yish chegara kesib o‘tilgan vaqtdan keyin **90 kundan ko‘p bo‘lmagan muddat orasida rasmiylashtiriladi va u ishlash uchun huquq bermaydi.**

Ishga joylashilgandan keyin muhojirlik qaydini УВМ ГУ МВД РФ по СПб и ЛО bo‘linmalarida mehnat shartnomasi amal qilish muddatiga ko‘ra (EOIH davlatlari fuqarolari uchun) yoki ish uchun patent to‘langanligiga qarab muntazam ravishda uzaytirmoq zarur.

ISHLASH UCHUN PATENT

Ozarboyjon, Moldova, Tojikiston, O‘zbekiston, Ukraina fuqarolari qonuniy ishga joqlashishlari uchun **ishlashga patent olishlari zarur.**

EOIH mamlakatlari (Armaniston, Belarus, Qozog‘iston, Qirgiziston) fuqarolari uchun patent olish talab qilinmaydi. Mehnat va fuqarolik-huquqiy shartnomasi ularning RF hududida bo‘lish muddatlarini uzaytirish uchun asosdir!

! Patent rasmiylashtirish uchun hujjat topshirish muddati – Rossiyaga kelgan vaqtdan keyin 30 kunda. Unga albatta rioya etmoq zarur, yo‘qsa, 10000 dan 15000 rublgacha **jarima** to‘lashga to‘g‘ri keladi. Patentda korsatilmagan ixtisosda ishlash– 4000 dan 7000 rublgacha jarima to‘lashga olib borishi mumkin.

Unutmang: faqat 18 yoshga to‘lgandan so‘nggina Rossiyada ishlash va patent olish mumkin!

Har bir mintaqada patent rasmiylashtirish uchun hujjat qabul qilishga huquqi bo‘lgan yagona tashkilot bor: Sankt-Peterburgda bu ФГУП «Паспортно-визовый сервис» МВД России **spb.pvsmvd.ru**.

Ishlash uchun patent rasmiylashtirish muddati – 10 ish kuni. Olingan patent asosida muhojirlik qaydi (registratsiya)ni uzaytirish zarur.

Siz patent bo‘yicha ishlash uchun **qayd etilgan bo‘nak (oldindan) soliq to‘lovini** (НДФЛ) navbatdagi har bir ish oyiga to‘lab qo‘yishingiz zarur. To‘lov o‘z vaqtida amalga oshirilmaganda muddat kechikishining birinchi kundan boshlab patentning amal qilishi to‘xtatiladi.

Diqqat qiling: oy sanog‘i hujjatda ko‘rsatilgan patent olingan muddatdan boshlab yuritiladi!

To‘lov har bir to‘langan ish oyi tugashiga 1 kun qolishidan kechiktirmasdan to‘lanadi (uni har oyda ham, shuningdek, bir necha oy oldinga ham to‘lash mumkin).

Qilingan to‘lovlarni tasdiqlaydigan patent va cheklar rekvizitlarini albatta o‘zingisda saqlang!

Siz patent olingandan so‘ng 2 oy davomida УВМ МВД РФ по СПб и ЛО ga buyurtma maktub bilan mehnat shartnomasi nusxasini topshirilganlik haqidagi bildiruv bilan birga yuborishingiz yoki sharnomani shaxsan topshirishingiz zarur, yo‘qsa, Sizning patentingisni yaroqsiz deb topishlari mumkin!

Patent amal qilishi muddati tugagach Rossiyadan chiqib ketish yoki УВМ МВД РФ ning muhojirlik masalalariga oid bolinmalarida patent amal qilish muddati tugashiga **10 ish kuni** qolishidan kechiktirmasdan patentni qayta rasmiylashtirish zarur. **Ishlash uchun patentni bir necha marta qayta rasmiylashtirish mumkin.**

ISHGA JOYLASHISH, MEHNAT HUQUQLARI

Sizga oddiy maslahatlar ko‘maklashadi:

- ▶ **vositachilarga murojaat etmang: ular Sizga qalbaki hujjatlar rasmiylashtirishlari mumkin, buning uchun Sizni jarimaga tortishadi va Rossiyadan chiqarib yuborishadi va Sizdan tekin ishchi kuchi sifatida foydalanishlari mumkin**
 - ▶ **ish izlayotganingizda** Siz «Работа в России» bo‘sh ish o‘rinlari umumrossiya bazasidan foydalanishingiz mumkin: trudvsem.ru
 - ▶ **qonuniy ishlang:** ish beruvchi Siz bilan shartnoma tuzishi va Sizga uning nusxasini berishi, shuningdek, unda mehnat shartnomasi yuzasidan 5 kundan ko‘p vaqtdan buyon ishlayotgan xodimga mehnat daftarchasi rasmiylashtirishlari SHART
 - ▶ **o‘z ish beruvchingisni tanib oling:** tashkilot nomi va manzilini, rahbaringiz bilan muloqot qilishni (vazifasi, familiyasi, ismi, telefoni). Bu ma‘lumotlar agar Sizga oz huquqlaringisni himoya qilish va ish haqini undirishga to‘g‘ri kelsa, qo‘l keladi
 - ▶ **ish haqi miqdorini va uni to‘lash sharoitlarini aniq gaplashib oling:** Sizga qancha va aynan qaysi ish uchun to‘lashlari kerakligini bilishingiz zarur. Ish haqi miqdori mehnat daftarchasida ko‘rsatilishi zarur. Siz pulni yo Sizning nomingizga ochilgan maxsus bank kartasidan, yoki buxgalteriyadan imzo chekib, hisob varaqasi bilan olishingiz zarur. Har qanday pullik munosabatlar hujjat bilan nasdiqlanishi zarur
 - ▶ **ivzolanayotgan har bir narsani diqqat bilan o‘qib chiqing, Sizga uning nusxasini berishlarini talab qiling.** Tushunmagan va o‘zingis rozi bo‘lmagan hujjatlarga imzo chekmang!
 - ▶ **hujjatlarinigizni ish beruvchiga saqlash uchun bermang:** hech kimning Sizning hujjatlarinigizni olib qo‘yishga, erkin harakat qilishingizni cheklashga, telefoningisni tortib olishga va hokazoga huquqi yo‘q. Pasportni olib qo‘yish va erkinlikni cheklash– jiddiy jinoyat: bunday hollarda politsiyaga murojaat etmoq zarur!
- Трудовом кодексе РФ (ТК РФ)** da yozilgan mehnat huquqlari.